

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BARATOV BAXTIYORJON QODIROVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ
MA’NAVIY TARBIYA JARAYONIGA TAYYORLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Baratov Baxtiyorjon Qodirovich

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash
tizimini takomillashtirish..... 3

Баратов Бахтиержон Кодирович

Совершенствование системы подготовки будущих учителей к процессу
непрерывного духовного воспитания 25

Baratov Bakhtiyorjon Kodirovich

Improving the system of preparing future teachers for the process of
continuous spiritual education..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 54

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

BARATOV BAXTIYORJON QODIROVICH

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ
MA‘NAVIY TARBIYA JARAYONIGA TAYYORLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped3960 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan hamda Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ndpi.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shermuhammadov Bahodirjon Shermuhammadovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Pazilova Meruert Ermekbaevna
pedagogika fanlari doktori, professor v.b

Erkaboyeva Nigora Shermatovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning 20²⁴ yil «4» V kuni soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nukus davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (76 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.) Tel.: (99861) 229-40-75; faks: (99861) 229-40-75.

Dissertatsiya avtoreferati 20²⁴ yil «20» IV da tarqatildi.
(20²⁴ yil «20» IV da) 76 raqamli reestr bayonnomasi).



B.P. Otemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.- m.f.d., professor

Z.K. Kurbaniyazova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., dotsent

A.K. Berdimuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, zamonaviy shaxsga xos fazilatlarni rivojlantirish, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. YuNESKOning ta‘lim bo‘yicha qator rezolyutsiyalarida ham yoshlarda ijtimoiy-hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularda ma‘naviy-axloqiy, media, shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, tinchlik uchun ta‘lim g‘oyasiga ustuvorlik berilmoqda. Ayniqsa, oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bilan birga, fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirish, tolerantlik va ma‘rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda 4K (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya) modelini samarali qo‘llashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dunyoda talaba-yoshlarda ochiqko‘ngillik, o‘zgalarga hurmat, qonunga itoat qilish, voqelikka tanqidiy baho berish va murosasozlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, oliy ta‘limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik strategiyasi va taktikasini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, talabalarda ijtimoiy-siyosiy voqelikka daxldorlik tuyg‘usini rivojlantirish orqali kasbiy-ma‘naviy sifatlarni tarkib toptirish, tyutorlik modelini samarali qo‘llash asosida oliy ta‘limda ma‘naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarning uzluksiz ma‘naviy tarbiyasini rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlarning imkoniyatlarini kengaytirish, talabalarda ijtimoiy muloqotchanlik va mobillikni qaror toptirish orqali yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash alohida dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda ma‘naviy-ma‘rifiy jarayonlarni tashkil etishning yaxlit tizimini yaratish, yoshlarni ma‘naviy tahdidlardan himoya qilishning tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqiy jihatlarini takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot davrida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning samarasi va ta‘sirchanligini oshirish, ularning ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, targ‘ibot-tashviqot va uzluksiz ma‘naviy tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohaga doir ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish¹ga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma‘naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son.

o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash mazmunini yoritib berish va modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ilmiy tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda o'quvchi-yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini shakllantirishning falsafiy, pedagogik-psixologik asoslari, o'quvchi-yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish, axborot iste'moli madaniyatini tarkib toptirish bo'yicha U.Aleuov, P.Abdimuratov, Sh.Akramova, M.Abdujabborova, A.Begmatov, M.Davletshin, I.Ergashev, G.Ibragimova, I.Karimov, Z.Kurbanniyazova, V.Karimova, A.Mavrulov, S.Mamashokirov, O.Musurmonova, D.Mamatqulov, Q.Nazarov, S.Norboyeva, H.Norqulov, A.Ochildiyev, M.Pazilova, M.Qaxxarova, Z.Qosimova, T.Qurbonov, M.Quronov, B.Shermuxammadov, M.Tadjiyeva, D.Tursunov, B.Xodjayev, M.Xo'jayevlar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Aydagulova, A.Ashanin, N.Beylina, N.Boritko, A.Verbitskiy, A.Voronin, T.Ivanayskaya, V.Kirillova, S.Kunisina, Yu.Kustov, Yu.Livshis, O.Togushova, D.Xorvat, E.Zeyerlar, tomonidan fuqarolik tarbiyasi, kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, ma'naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan Mullins Willard Arnold, Minar David, K.Dyrli, Walford George, Walsby Harold, H.Spencer-Oatey, B.H.Kleiner, F.Koenen, R.Land, H.Rheingold, S.Reid, R.Shavelson, Blattberg Charles, M.Unland, D.Xarmonlar tomonidan mafkura konsepti, mafkura va siyosiy xulq-atvor, siyosiy falsafa va siyosiy mafkuraning o'ziga xos xususiyatlari, oliy ta'lim jarayoniga

kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning nazariy-metodologik jihatlari yoritib berilgan.

Biroq bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash mazmuni va bosqichlari, bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik modeli va tizimi maxsus yoritib berilmagan. Ana shunday zarurat bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanish olib borishni taqozo etdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish" (2018-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash mazmuni va bosqichlarini aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik modelini ishlab chiqish;

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik tizimini takomillashtirish.

Tadqiqotning obekti sifatida bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Farg'ona davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Jizzax davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarining 374 nafar respondent-talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogik, psixologik, maxsus adabiyotlar va me'yoriy xujjatlarni o'rganish; olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, modellashtirish); empirik (pedagogik tajriba-sinov, kuzatish, so'rovnoma, test o'tkazish); matematik (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, korrelyasion taxlil va noparametrik tekshirish usullari) usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning shaxsiy-ijtimoiy anglanganlik, barqaror ijobiy motivatsiyani rivojlantirish, faol subektiv pozitsiya bilan bog'liq ta'limiy vaziyatlarni yaratish kabi psixologik-pedagogik xususiyatlari kasbiy shakllanishda determinant hisoblangan ko'nikmalarning (analitik, prognostik, reflektiv, mobilizatsion, yo'naltiruvchi, kommunikativ) radiantlik (yorqin namoyon bo'lishi) darajasi barqarorligini ta'minlash orqali aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash kognitiv, baholash, refleksiya, tanlov, interiorizatsiya, fazilatlarni faoliyatda namoyon etish, mustahkamlash va korrektsiya bosqichlari yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish umumpedagogik texnologiyasini tayanch ma'naviy kompetentsiyalarni pedagogik loyihalash jarayonlariga maqsadli yo'naltirish algoritmik ketma-ketligini bevosita hisobga olish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash modelining mazmunli komponenti interfaollik (kooperatsiya, kollaboratsiya, guruh ish, komandada ishlash), "Ma'naviyat asoslari" to'garak mashg'ulotining didaktik ta'minoti va mualliflik ijtimoiy loyihalarini ishlab chiqish, majmuaviylik (auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar integratsiyasini ta'minlash) kabi pedagogik jarayon elementlarini kouch-trenerlik bilan identivligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning tizim hosil qiluvchi tarkibiy asoslari (maqsad, mazmun, shakl, metod, vosita, natija) KBMI ("Kuzatish, bahs-munozara, ishontirish"), MRT ("Motivlarni rivojlantirish treningi"), AJKL ("Amaliyotdagi jamoaviy kreativ loyihalar"), "Munozara klubi", "Ma'rifat akademiyasi", "Tanqidiy tafakkur", "Ma'rifatli avlod, "Oq va qora – kecha va kunduz – jaholat va ma'rifat" kabi tarbiya texnologiyalarini oliy ta'lim bosqichiga adaptivlik imkoniyatini kengaytirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarda uzluksiz ma'naviy tarbiyaning rivojlanganligini belgilash mezonlari va darajalari aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda uzluksiz ma'naviy tarbiyani rivojlanganligini baholashning diagnostik vositalari ishlab chiqilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda uzluksiz ma'naviy tarbiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan "Ma'naviyat asoslari" to'garak dasturi va didaktik ta'minoti ishlab chiqilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi pedagogik va psixologik ta'lim konsepsiyasi, metodologiyasi (o'qitishning ustuvor tamoyillari, bo'lajak o'qituvchilarida uzluksiz ma'naviy tarbiyani rivojlantirish mazmuni)ga tizimli, majmuaviy va innovatsion yondashilganligi; ilmiy izlanishni olib borishda pedagogik, psixologik va metodik yo'nalishdagi mahalliy hamda xorijiy tajriba,

tadqiqotlar natijalariga tayanilganligi; tadqiqot maqsadi, vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanilganligi; tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzulmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish mazmunining yoritib berilganligi, mazkur jarayonni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarining ishlab chiqilganligi, bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid nazariy yondashuvlar mohiyatining yoritib berilganligi, auditoriyadan tashqari tashkillangan “Ma’naviyat asoslari” to‘garagining bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashni didaktik imkoniyatlarining ochib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash modelining ishlab chiqilganligi, jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, “ommaviy madaniyat” ta’siridan himoya qilish va unga qarshilik ko‘rsatishga doir ma’naviy-profilaktik texnologiyalar, pedagogik tizimining takomillashtirilganligi, bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashga doir ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning shaxsiy-ijtimoiy anglanganlik, barqaror ijobiy motivatsiyani rivojlantirish, faol subektiv pozitsiya bilan bog‘liq ta’limiy vaziyatlarni yaratish kabi psixologik-pedagogik xususiyatlarini kasbiy shakllanishda determinant hisoblangan ko‘nikmalarning radiantlik darajasi barqarorligini ta’minlash orqali aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VII yo‘nalishida belgilangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, jumladan ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas’uliyatini oshirish”, 31-bandi “Mamlakatda yoshlar ma’naviy tarbiyasini tizimli tashkil etishga qaratilgan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” asosida barcha tizimlarda belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni uslubiy ta’minlash” hamda mazkur yo‘nalishning 37-bandi “Yangi O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy portreti”ni yaratish loyihasi bo‘yicha Harakatlar dasturini ishlab chiqish va vazirlik va idoralar bilan amalga oshirish” mavzusida targ‘ibot materiallarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil 17-yanvardagi 02-22/50-son ma’lumotmasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari ishlab chiqish hamda empirik baholash samaradorligini aniqlashga xizmat qilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash kognitiv, baholash, refleksiya, tanlov, interiorizatsiya, fazilatlarini faoliyatda namoyon etish, mustahkamlash va korrektsiya bosqichlarini yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish umumpedagogik texnologiyasini tayanch ma'naviy kompetentsiyalarni pedagogik loyihalash jarayonlariga maqsadli yo'naltirish algoritmik ketma-ketligini bevosita hisobga olish hamda bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash modelining mazmunli komponentini interfaollik, "Ma'naviyat asoslari" to'garak mashg'ulotining didaktik ta'minoti va mualliflik ijtimoiy loyihalarini ishlab chiqish, majmuaviylik kabi pedagogik jarayon elementlarini kouch-trenerlik bilan identivligini ta'minlash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" (2018-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyihaning uzluksiz ma'naviy tarbiya texnologiyalarini loyihalash qismini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 6-maydagi 02-07-1662/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning tizim hosil qiluvchi tarkibiy asoslarini KBMI, AJKL, "Munozara klubi", "Ma'rifat akademiyasi", "Tanqidiy tafakkur", "Ma'rifatli avlod, "Oq va qora – kecha va kunduz – jaholat va ma'rifat" kabi tarbiya texnologiyalarini oliy ta'lim bosqichiga adaptivlik imkoniyatini kengaytirish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" (2018-2020 yy.) mavzusidagi amaliy loyihaning uzluksiz ma'naviy tarbiya texnologiyalarini loyihalash qismini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 6-maydagi 02-07-1662/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 145 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati, pedagogik-psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari: “Bugun ma'naviyat boshqa sohalardan o'n qadam oldinda yurishi, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak” ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

O'zbek tilining izohli lug'atida ma'naviyat – axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar sifatida talqin etilib, insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy tasavvurlari va tushunchalar majmuidir deyilgan. Shuningdek, mazkur lug'atda ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir, u yo'q joyda hech qachon baxt saodat bo'lmaydi deya izoh berilgan. Shunga ko'ra aytish mumkinki, ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, mafkuraviy immunitetini boyitish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda “Ma'naviyat” tushunchasini tavsiflashga doir xilma-xil talqinlar mavjud bo'lib, “Ma'naviyat: asosiy tushunchalar” izohli lug'atida: “Ma'naviyat (arab. ma'no, ma'nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa” tarzida umumlashgan ta'rif berilgan. Bir qator xorijlik olimlar, jumladan, K.Anderson, R.Riz, M.Entoni, N.Olt, P.Xovard kabilar tomonidan ma'naviy mentorlik, bolalarning ma'naviy shakllanish istiqbollari, insonning hayot davomida ma'naviy yuksalishi, ma'naviy shakllanishning psixologik modeli bilan bog'liqlikda “ma'naviyat” tushunchasiga izoh berib o'tilgan. Cietl universitetining mazkur soha bo'yicha mas'ul xodimi Valeri Lesnyak o'z tadqiqotlarida “ma'naviyat” masalasiga to'xtalib, o'z qarashlarini quyidagicha ifodalaydi: “Ma'naviyat haqiqatni anglash, ko'pmadaniyatli istiqbollar va mustahkam e'tiqod kabi jarayonlar bilan bog'liq hodisadir”.

“Tarbiya” tushunchasi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida “shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chor-tadbirlar yigindisi” sifatida ifodalangan. Tarbiya xususida so'z borganda shuni ta'kidlab o'tish joizki, Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo

najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan qimmatli fikrlari hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Syun-Szi “Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig‘lashadi. Katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu – tarbiyaning oqibati”, deb yozgan. Immanuel Kant esa “Inson faqat tarbiya orqali inson bo‘ladi, uning qandayligi tarbiyaning natijasidir”, degan fikrni bildiradi.

Adabiyotlar tahlili, tadqiqotchi olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar asosida “bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma‘naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash” tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: “Bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma‘naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashda talabalarni ma‘naviy tarbiya sohasidagi bilim, motiv, sifat, faoliyat va qadriyatlar uyg‘unligini rivojlantirishga yo‘naltirish orqali yuksak ma‘naviy tarbiyaga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishga qaratilgan maqsadli jarayondir”.

Yuqoridagi nazariy qoidalarga asoslangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarda uzluksiz ma‘naviy tarbiyani rivojlantirish tuzilmasini quyidagicha ifodalash mumkin:

Uzluksiz ma‘naviy tarbiya jarayoniga oid bilimlar – ma‘naviy-axloqiy tasavvur, ma‘naviy-tarbiyaga oid tushunchalarni anglash, idrok etish va o‘zlashtirish. Talabalarning ma‘naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratilad, bu orqali talaba-yoshlar hayotda o‘z o‘rnini topadi, ularning kelajakka bo‘lgan ishonchi ortadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo‘ladi.

Uzluksiz ma‘naviy tarbiyaga oid motivlar – uzluksiz ma‘naviy tarbiyani rivojlantirishga undovchi harakatlar, ta‘lim va tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash. Bunda, sohaga oid uslubiy tavsiyalar, ma‘rifiy adabiyotlar, media mahsulotlar, ilmiy-metodik qo‘llanmalar majmuasi yaratish, to‘garaklar faoliyatini “Besh muhim tashabbus” asosida rivojlantirish, murabbiy-tutorlarni “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi”ni amalga oshirish maqsadida malakasini oshirish.

Uzluksiz ma‘naviy tarbiyaga oid sifatlar – uzluksiz ma‘naviy tarbiyaga oid xususiyat va xislatlar majmui qamrab olinadi. Jumladan, kasbiy-ma‘naviy ko‘nikmalarni mustahkamlash, o‘zini-o‘zi tarbiyalashga o‘rgatish, faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, ilmiy, ma‘naviy-axloqiy, siyosiy dunyoqarash va sog‘lom diniy e‘tiqodni shakllantirish, kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish.

Uzluksiz ma‘naviy tarbiyaga oid faoliyat – uzluksiz ma‘naviy tarbiyaga oid voqelikni tahlil etish, baholash va xulosa chiqarish orqali oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yangi, ta‘sirchan shaklda tashkillash.

Uzluksiz ma‘naviy tarbiyaga oid qadriyatlar – ilmiy-texnikaviy va intellektual, ta‘lim-tarbiya, milliy meros, tarixiy yodgorliklar nazarda tutilgan. Qadriyatlar har bir millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini ko‘rsatib turuvchi eng muhim omillardan birii xisoblanadi. Qadriyatlar uzoq vaqt davomidagi ma‘lum bir qarash, odat, tushuncha, tajribalar bo‘lib, u bir necha avlodlar sinovidan

muvaffaqiyatli o‘tsagina yanada sayqal topadi, rivojlanadi, xalq hayotida o‘z o‘rnini egallaydi. Ana shu nuqtai nazardan uzluksiz ma’naviy tarbiyaga oid qadriyatlar tadqiqotimiz doirasida o‘rganilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mazmunan uzluksiz ma’naviy tarbiya fazilatlari tizimi madaniy hodisa sifatida integrativ tavsifga ega bo‘lib, umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy sharoitda muhim hisoblangan axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirishning muayyan darajasini o‘zida aks ettiradi. Shu bois, umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar va zamonaviy sharoitda talabalarda shakllantirish lozim bo‘lgan 10 ta tayanch kompetensiya (Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik) o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik majud, degan xulosaga kelindi (1-rasmga qarang).

Uzluksiz ma’naviy tarbiyaning tayanch kompetensiyalari	Ma’naviy-axloqiy sohaga oid umuminsoniy qadriyatlar
Vatanga sadoqat; tadbirkorlilik; irodalilik; mafkuraviy immunitet; mehr-oqibatlilik; mas’uliyatlilik; bag‘rikenglik; huquqiy madaniyat; innovatsion fikrlash; mehnatsevarlik.	Vatan sog‘inchi; ishbilarmonlik; bosiqlik, chidamlilik; g‘oyaviy sobitlik; mehirlilik, shafqat, halimlik; intizomlilik; sabr-toqatlilik; adolatlilik; sog‘lom tafakkur yuritish; o‘zgalar mehnatini qadrlash.

1-rasm. Tayanch uzluksiz ma’naviy tarbiya kompetensiyalar va ma’naviy-axloqiy sohaga oid umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, talabalarda uzluksiz ma’naviy tarbiyaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy sohaga oid umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq pedagogik qarashlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yangi O‘zbekistonning rivojlanish bosqichida yoshlarni intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlod etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. O‘tgan davr mobaynida bu borada qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda yangi avlod adabiyotlari yaratildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muxim tashabbus asosida yoshlar bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar hamda oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan to‘garaklar mazmuni tubdan takomillashtirildi. Shunga ko‘ra, ma’naviy-ma’rifiy sohasidagi bu kabi ishlarni quyidagi tamoyillar asosida uch guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1) “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlarini belgilagan holda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar (tartibga soluvchi tamoyil); 2) ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish va uni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi manbalar: o‘quv

adabiyotlar, ensiklopediya va lug'atlar; monografiya, avtoreferat va dissertatsiyalar (bilimlarni boyitib borish tamoyili); 3) oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan to'garaklar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar (samaradorlik tamoyili).

Biroq oliy ta'lim muassasalari o'quv rejasidagi fanlar gorizontallik tamoyilga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ularning mazmunida uzluksiz ma'naviy tarbiya sohasini rivojlantirish masalalarini to'liq aks ettirish imkoniyati mavjud emas. Empirik tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida yosh pedagog, talabalar teatr studiyasi, adabiyot gulshani, milliy g'oya va ma'naviyat asoslar bo'yicha turli to'garaklar faoliyat yuritsada, biroq mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda uzluksiz ma'naviy tarbiyani rivojlantirish masalasini maxsus o'rganish ko'zda tutilmagan. Natijada, tajriba-sinov ishlarining asoslovchi bosqich natijalarini tahlil etish va umumlashtirish asosida "Ma'naviyat asoslari" nomli to'garak dasturini ishlab chiqish, boshlang'ich ta'lim, pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalar uchun auditoriyadan tashqari mashg'ulot sifatida o'qitish hamda boshqa pedagogika yo'nalishlari uchun mazkur to'garak faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq ekanligi haqidagi xulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik tizimi**" deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning mazmuni, pedagogik modeli hamda shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Jahonda xalqaro ta'lim standarti tasnifi (XTST) talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamlilik ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida bo'lajak o'qituvchilarda tarkib toptirilishi lozim bo'lgan ma'naviy kompetensiyalarga (fazilatlar) ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili hamda xorijiy tajribalar asosida tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik modelini ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi.

Pedagogika nazariyasida umummadaniy kompetentlik mustaqil bilim olish, o'z-o'zini anglash, mustaqil va madaniyatning turli sohalaridagi hodisalar haqidagi asoslangan fikrlar, boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotga kirishish uchun yetarlicha ta'lim olganlik darajasi sifatida talqin qilinadi.

Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirish uchun unga taalluqli umummadaniy kompetensiyalarni ajratib olish zarur xisoblanadi, shu bois pedagogika ta'lim sohasining Davlat ta'lim standarti tahlil etildi. Natijada, Davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan 29 ta malaka talablaridan 17 tasi umummadaniy, 36 ta kasbiy kompetensiyalardan bir nechtasi aynan talabalarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirish kompetensiyalariga taalluqli ekanligi aniqlandi.

Ma'naviy-axloqiy sohaga oid umuminsoniy qadriyatlar va kasbiy kompetensiyalar mazmunini hamda ularning ma'naviy-axloqiy tarbiya muammosi bilan bevosita o'zaro aloqadorligini tahlil etish asosida "uzluksiz ma'naviy tarbiya" tushunchasi sotsiumda qabul qilingan ma'naviy-axloqiy ustanovkalar va qadriyatli-motivasion tasavvurlar asosida ajdodlarning boy ma'naviy tajribasi, zamon talabi bilan hamohang bo'lgan ma'naviy fazilatlar, insonning ijtimoiy va kasbiy jihatdan maqsadga muvofiq xulq-atvorini ta'minlaydigan shaxsning integral xususiyati sifatida talqin qilindi.

Umuminsoniy qadriyatlar va kasbiy kompetensiyalarni tahlil qilish jarayonida asosiy e'tibor aynan bo'lajak o'qituvchilarda uzluksiz ma'naviy tarbiyaning rivojlantirishini belgilab beruvchi jihatlarga qaratildi. Bizningcha, bo'lajak o'qituvchilarda uzluksiz ma'naviy tarbiyani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:


1) oilaviy-ijtimoiy; 2) pedagogik-psixologik; 3) fuqarolik-vatanparvarlik; 4) valeologik; 5) qadriyatli-yo'nalganlik; 6) ijtimoiy-madaniy; 7) ma'naviy; 8) g'oyaviy-mafkuraviy.

Oliy ta'lim muassasasida pedagogik-psixologik ta'limni takomillashtirishga doir turli yondashuvlarini o'rganib shunday xulosaga kelindiki, talabalarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash (bilim, motiv, sifat, faoliyat, qadriyat) pedagogik-psixologik fanlarning ommalashuvi, talabalar o'quv-tarbiya faoliyati usullarining faollashuvi va pedagoglarning boshqaruv faoliyati takomillashuvi hisobiga amalga oshadi. Shu bilan birga, pedagogik-psixologik fanlarning ushbu sohadagi salohiyati yuqorida sanab o'tilgan komponentlar birligini ko'zda tutuvchi tizim sifatidagina samarali tatbiq etilishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarining o'quv rejalaridagi pedagogik-psixologik fanlar tahlil qilindi va shartli ravishda quyida uch guruhga ajratildi. Jumladan, *katta hajmdagi asosiy fanlar*: umumiy pedagogika, umumiy psixologiya (pedagogika nazariyasi va tarixi, psixologiya nazariyasi va tarixi); *o'rta hajmdagi integratsiyalashgan fanlar*: tarbiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, ijtimoiy pedagogika, muzey pedagogikasi, gender pedagogika, ijtimoiy psixologiya; *kichik hajmdagi tanlov fanlar*: amaliy pedagogika, elektron pedagogika tarbiyada kouch trening, pedagogik innovatika, pedagogik valeologiya, muloqot psixologiyasi, ijod psixologiyasi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida tadqiqotchilikka doir shakllar ham ko'zda tutildi (pedagogik diagnostika, individual va jamoaviy ma'ruzalar tayyorlash, tadqiqot ishlari himoyasi, "Ma'rifat akademiyasi" nomli talabalar ilmiy-amaliy anjumani, "Ma'naviyat asoslari" to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish). Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni quyidagi texnologiyalar asosida tashkil etilgan taqdirda samarali natija berishi mumkinligiga ishonch hosil qildik. Tadqiqotlarimiz davomida biz "Pedagog va jamoa", "Tanishuv", KBMI ("Kuzatish, bahs-munozara, ishontirish"), MRT ("Motivlarni rivojlantirish treningi"), AJKL ("Amaliyotdagi jamoaviy kreativ loyihalar"), "Munozara klubi", "Ma'rifat akademiyasi", "Tanqidiy tafakkur", "Ma'rifatli avlod, "Oq va qora – kecha va kunduz – jaholat va ma'rifat" kabi tarbiyaviy texnologiyalarni samarali qo'llash orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga erishdik.

Pedagogika ta'lim sohasi Davlat ta'lim standartidagi umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni tahlil qilish, nazariy-metodologik asoslarga tayangan holda bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarni uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayoniga tayyorlashning pedagogik modeli

Maqsadga yo'naltirilgan va metodologik bloklar bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirishning boshqa bloklari uchun yetakchi ro'l o'ynaydi. Mazkur blok mazmunini aniqlashtirish asosida tadqiqot sohasiga doir Davlat ta'lim standarti va ijtimoiy buyurtma, me'yoriy-huquqiy asoslar belgilab olindi. Shuningdek, modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi.

Amaliy va tashkiliy-pedagogik bloklar quyidagi majmuaviy pedagogik shart-sharoitlarni o'zida aks ettiradi, jumladan, algoritmik bosqichlar: faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va baholash, refleksiya va korreksiya; interfaollik; auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning didaktik ta'minotini ishlab chiqish va o'tkazish; ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish; ta'lim shakllari, metod va vositalarini samarali qo'llash.

Modelning natijaviylik bloki baholovchi funksiyani bajaradi va tadqiqotning amaliy jihatini tavsiflab, o'zida talabalarda uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlik darajalari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Muammo yuzasidan zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy o'lchov mezonlari shaxsni rivojlantirishning ko'proq yuqori darajasining egallaganligini aks ettiradi. Tadqiqotda quyidagi to'rt o'lchov mezoni aniqlashtirildi: 1) emotsional-motivasion; 2) informasion-kognitiv; 3) faoliyatga doir; 4) qadriyatli.

Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorligini baholashda darajali yondashuvdan foydalanildi. Mazkur yondashuv har bir mezon bo'yicha bir darajadan boshqasiga o'tishda o'rganilayotgan jarayon dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorligini aniqlashning quyidagi darajalari aniqlandi: adaptiv (past); situativ-reproduktiv (o'rta); kreativ (yuqori).

Mazkur darajalar bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorligining namoyon bo'lish darajasini tavsiflashga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlik darajasini tashxis etishning taklif etilgan dasturi asoslovchi bosqichda sinovdan o'tkazildi va rivojlanganlik darajasini aniqlashga imkon beruvchi ta'limiy jihatlaridan tajriba-sinov jarayonida foydalanildi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning bloklari o'zaro aloqador va yakuniy natijani aniqlashga xizmat qiladi; bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorligining rivojlantirishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil etish vositasi sifatida pragmatik yo'nalganlikka ega; bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy, ma'naviy-tarbiyaviy tayyorlash tizimi sifatida ochiq tuzilmani o'zida ifoda etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash tizimini takomillashtirish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni, natijalari hamda ularning tahlili yoritib berilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash bo'yicha tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali ta'minlandi: tajriba-sinov materiallari mazmuni asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda tanlanganligi; tajriba-sinov materiallariga mos keladigan didaktik vositalar, shakllar, usullar va metodlarning tanlanganligi; tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari – respondentlar sonini taqqoslash, qiyoslash imkoniyatini beradigan ko'rsatkich bo'la olishiga erishilganligi; respondentlarning tajriba-sinov ishlari mazmun-mohiyatidan to'laqonli tarzda xabardor etilganligi; tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda tadqiqotchi yoki ushbu faoliyatni tashkil etishga mas'ul bo'lgan yetakchi-pedagog bilan respondentlar o'rtasida samimiy muloqot hamda o'zaro hamkorlikning o'rnatilganligi; tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida respondentlar bilan muloqot qila olish imkoniyatining yaratilganligi; tajriba-sinov ishlari natijalarining doimiy ravishda umumlashtirib tahlil etilganligi; umumiy natijalarni qayta tahlil etish imkoniyatini beradigan matematik-statistik metodlarning aniqlanganligi.

Qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda 2020-2023-yillarda uch bosqichda (asoslovchi; shakllantiruvchi; ta'kidlovchi) tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Aniqlashtirilgan mezonlar bo'yicha tajriba-sinov ishlarining ishonchliligini ta'minlashda quyidagi talablar hisobga olindi: mezonlar qator ko'rsatkichlar asosida ochib berilishi lozim; mezonlar vaqt va makonda sifatning dinamik o'zgaruvchanligini aks ettirishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlik darajasini aniqlash mezonlari, ko'rsatkichlari va diagnostik metodikalari aniqlashtirildi (1-jadvalga qarang).

Talabalarda qadriyatli munosabat, madaniy va umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, motiv va refleksiv nuqtai nazarning shakllanganligini aniqlashda moslashuvchan metodikalardan foydalanildi. Uzluksiz ma'naviy tarbiyaga oid bilimlar hamda moslashuvcha va maxsus kompetensiyalarning rivojlanganligini aniqlashda mualliflik metodikalaridan foydalanildi.

1-jadval

Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlik darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlari

Mezonlar	Ko'rsatkichlar
Emotsional-motivatsion	ma'naviy tarbiya jarayoniga oid bilimlarni o'zlashtirish, yot g'oya va mafkuralarga qarshi turish motivlarining shakllanganligi
Informasion-kognitiv	uzluksiz ma'naviy tarbiya asoslari, ma'naviy tahdidlar, tajovuzlarga qarshi kurashish metod va vositalari haqidagi bilimlarning to'liqligi
Faoliyatga doir	moslashuvchan va maxsus kompetensiyalarni o'zlashtirganlik; refleksiv nuqtai nazarning shakllanganligi
Qadriyatli	ma'naviy mas'uliyat, vijdon, sadoqat, fidoyilik, madaniy va umuminsoniy qadriyatlar tizimining shakllanganligi; faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanganligi

